

Bahor va ezgulikning qo'shaloq bayrami: "Uzbekistan Airways" bilan birga yaqinlarimiz yoniga parvoz qilamiz!

2026 19 Mart

Eng nurli va uzoq kutilgan kunlar – bahoriy yasharish bayrami Navro'z hamda muqaddas Ramazon hayiti kirib kelmoqda. Bu oila a'zolari bilan birga bo'lish, yoshi ulug'larni yo'qlash, yaqinlarni xushnud etish va bir-biriga mehr ulashish ayniqsa muhim bo'lgan palladir.

Yaqinlaringiz va qarindoshlaringiz oldiga oson va qulay sayohat qilishingiz uchun "Uzbekistan Airways" 19-martdan 23-martgacha respublika ichidagi yo'nalishlarga qo'shimcha aviaqatnovlarni yo'lga qo'yimoqda. Yangi aviaqatnovlar uchun aviachiptalar allaqachon sotuvda!

Shuningdek, bayram aksiyasini eslatib o'tamiz: 23-martga qadar barcha mahalliy aviaqatnovlar tariflariga 15% gacha chegirma amal qiladi.

Chiptalarni booking.uzairways.com saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniyaning rasmiy agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.

Qulay sayohatlar "Uzbekistan Airways" bilan boshlanadi!